SCIENCE CONNECTS PEOPLE

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF

2026 / No. 1(2)

Contemporary Pedagogical and Philological Research

ALISHER NAVOIY NODIRABEGIMNING MA’NAVIY USTOZI (QIYOSIY TAHLILI)

Nurutdinova Malikaxon Sharabovna

Guliston davlat universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasining mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: malika122yun@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy Nodirabegimning ma’naviy ustoziligi haqida so‘z boradi. Navoiy o‘z davrining buyuk mutafakkiri, so‘z ustasi. Nodiraning g‘azallarida Navoiyning siymosi borligi, uning asarlariga qiyoslab g‘azallar yozgani. Shoiraning ijodiy kamol topishida hech shubhasiz Alisher Navoiyning o‘rni beqiyosligi. Alisher Navoiy ijodining asosini insof va adolat, mehnat va ma’rifat, muruvvat va shafqat,himmat va saxovat, sevgi va sadoqat,razolat va jaholat mavzulari tashkil etadi. Alisher Navoiyning ijodidagi shunday xislatlar Mohlaroyim Nodiraning ham ijodida o‘z ifodasini topgani misollar orqali tahlil qilinishi haqida fikr keltiriladi.

Kalit so‘zlar: lirika, junun, andishada, hasrat,nadomat, nola, masjid, hammom, karvonsaroy, so‘z, minnat, qahramon, mahorat.

Аннотация. В данной статье рассказывается о духовном наставничестве Алишера Навои Нодирабегима. Навои — великий мыслитель своего времени, мастер слова. Газели Надиры содержат фигуру Навои, и она писала газели в сравнении с его произведениями. Несомненно, что место Алишера Навои в творческом развитии поэтессы несравненно.Основой творчества Алишера Навои являются честность и справедливость, труд и просвещение, доброта и сострадание, мужество и великодушие, любовь и верность, гордость и невежество. . Дается мысль, что такие качества в творчестве Алишера Навои выражены и в творчестве Мохлароим Нодира через примеры.

Ключевые слова: лирика, джунун, андишада, скорбь, сожаление, плач, мечеть, баня, караван-сарай, слово, благодарность, герой, мастерство.

Abstract. This article talks about the spiritual mentorship of Alisher Navoi Nodirabegim. Navoi is a great thinker of his time, master of words. Nadira's ghazals contain the figure of Navoi, and she wrote ghazals in comparison to his works. There is no doubt that the place of Alisher Navoi in the creative development of the poetess is incomparable. The basis of Alisher Navoi's work is honesty and justice, labor and enlightenment, kindness and compassion, courage and generosity, love and loyalty, pride and ignorance. An idea is given that such qualities in Alisher Navoi's work are also expressed in the work of Mohlaroyim Nodira through examples.

Key words: lyrics, junun, andishada, grief, regret, lament, mosque, bathroom, caravanserai, word, gratitude, hero, skill.

Mohlaroyim Nodira o‘z ijodida o‘tmishda yashab ijod etgan bir qancha shoirlarni ijodi bilan qiziqqan. Firdavsiy, Jomiy, Hofiz, Otoyi, Navoiy,Bobur,Fuzuliy, Bedil kabi buyuk insonlar ijodiga havas bilan qaraydi va ularni o‘ziga ustoz deb biladi. Shoiraning ijodiy kamol topishida hech shubhasiz Alisher Navoiyning o‘rni beqiyosdir. Alisher Navoiy ulug’ lirik shoirdir. Uning ijodini asosini insof va adolat, mehnat va ma’rifat, muruvvat va shafqat, himmat va saxovat, sevgi va sadoqat,razolat va jaholat mavzulari tashkil etadi.

Alisher Navoiyning ijodidagi shunday xislatlar Mohlaroyim Nodiraning ham ijodida o‘z ifodasini topgan. O‘zbek mumtoz adabiyotining ikkala vakili ham zullisonayn (ikki til egasi).O‘zbek va fors-tojik tillarda ijod etishgan. Ikki tilda ijod qilgan shoira o‘zbek va fors-tojik tillarida “Komila”, “Nodira” va “Maknuna”(Yashirin) taxalluslari bilan ijod qilgan. Nodira Navoiyning lirikasiga hamohang g‘azallar bitdi.

Navoiydan:

Qilur jununi qadah man’ini manga zohid,

Degaymu telbaga bu so‘zni bo‘lmasa ablah.

Nodiradan:

Sho‘ru g‘ovg‘osi chununi man digar,

G‘ulg‘uli ro‘zi qiyomat digar ast.

Tarjimasi:

(Jununimning to‘polon, g‘avg‘osi bo‘lak, qiyomat kunining vahimasi boshqacha.)

Bu baytlarda bir necha so‘zlar o‘xshashligini, mazmun va ma’nosini yaqinligi ifoda etilgan. Junun aqldan ozganlik, telbalikka qiyoslash, jinniga o‘xshab so‘zlashishini ifodalaydi.

Nodiradan:

Dilim andesha, aqlam yodi o’ dosht,

Chunun bar bodi hasrat dod in du. [176-bet]

Tarjimasi:

Nodira dilim andishada, aqlim uning yodi bilan edi, bu ikkovi jununimni hasrat shamoliga ushiradi deb his- tuyg‘ularini, qayg‘ularini oshkor qiladi.

Nodiradan:

Meni jununima Majnunni bermangiz nisbat,

Qilurmu xoru xashak tobi shu’lai g‘ayrat. [160-bet]

1326 O‘zbek she’riyati antologiyasi o‘zadabiynashr,Toshkent-1961 yil

Navoiyning mansab va shon-shuxrat emas, balki el-yurt uchun xizmat qilish qiziqtirar edi. U mamlakatni xarob qiluvchilar bilan keskin kurashdi. Obodonlashtirish va madaniy hayotga xizmat qildi. Navoiy tashabbusi bilan juda ko‘p va xilma-xil binolar qurildi.

Nodiradan

Ba g‘urbatam chu vatan rohate buvad,aknun

Zi nolaxoi dili zoru beqaror chiy minnat.

tarjimasi

Nodira g‘aribligim mening vatandek rohatdir,endi zoru beqaror ko‘nglimning nolasidan ne minnat?- deb oshyonini sevishini bildiradi. 55-bet(2388 Komila-Nodira)II-kitobidan

Nodira o‘z vatanini sevdi, madaniyat va adabiyot homiysi sifatida yuksaldi. U gulistondek Chahorchaman bog‘iga borib, Farg‘ona, Toshkent, Xo‘jand, Andijon va boshqa shaharlardan fozillar, olimlar, xattotlar, naqqoshlarni o‘z xizmatiga chaqirtirib keldi. Mamlakat xirojlaridan behisob tilla va javohirlarni sarf qilib bir madrasai oliy, naqshdor masjid, hammom, karvonsaroy bino qildirdi va madrasa, masjidlarga hisobsiz vaqflar tayin qildi… Bu kunlarda yana kitoblar yozdirish va ularga zebi ziynat berishga farmon qilib, bir kitobxona bino ettirdi. Undagi kotiblar, xattotlar, naqqoshlarga shunday karam va ehsonlar ko‘rguzdiki, buning ovozasi atrof olamga mashhur bo‘ldi. “Ma’naviyat yulduzlari” (Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 1999) kitobidan olindi.

Bundan ko‘rinib turibdiki qilgan barcha ishlarida ham Alisher Navoiy bilan bir xillik mavjud.

Nodira Navoiyning “Xamsa” asaridagi dostonlardagi o‘brazlarga g‘azallar yozgan. O‘xshatmalar,qiyoslashlar bitdi.

Qissai Farhodu Machnun shud muqarar, ba’d az in,

Dar dili ahli vafo afsonai man yod bod!

Tarjimasi:

(Farhod bilan Majnun qissasi ko‘p takrorlandi, bundan so‘ng vafo ahllarining dillarida mening afsonam yod bo‘lsin.)[95-bet] Nodira-Komila)

Shavad xokistaru gardad g‘ami Layli faromushash,

Ba Majnun gar namoyam surati holi tabohi xud.

Tarjimasi:

(Agar baxti qaroligimni Majnunga aytsam,

U yonib kul bo‘ladi va Layli gamini unutadi.) [89-bet](Nodira-Komila)

Nodira:

Didam on Lalinasab, Majnuniyam shud oshkor,

Surati Shirin zi yodi Ko‘hkan gul kardu rext.

Tarjimasi:

(Ul Lalinasabni ko‘rdimu, Majnunligimni oshkor bo‘ldi,

Shirinning surati Farxodning yodidan chiqib ketti).[52-bet] (Nodira-Komila)

Nodira ustozining asarlarini varaqlaganda ilhom shamoli esadi. Har qanday asarning lirik qahramoni- shoirning o‘zidir, ruhiy kechinmalar, his-tuyg‘ular, nolish, adolatsizlik va insofsizlikni qoralash asosiy motivlardan.

Navoiy lirikasida mutafakkir, faylasuf, oshiq, yor, raqib,shayx, zohid, podshoh kabi lirik obrazlar bor. Shayx, zohid, podshohlar salbiy obrazlardir. Aynan Nodiraning ijodida ham shunday qahramonlar ham bor.

Berur g‘urur ila oroyishi fashi dastor,

Ki xudnamolig’ erur zebi korxonai shayx.

Shayx o‘zini barchadan ustun ko‘rib, o‘zini tubanligini namoyish etishini boshqalarga past nazarda qarashini ustalik bilan ifodalaydi.

Xomush etarman ani bir sharori ox ila,

Agarchi tez erur o‘t kabi zabonai shayx. [244-bet]J.Lapasov

Shayxlarning qiliqlaridan xomush bo‘lishi, ohu fig‘oni, faryodlari, tillarini o‘tkirligidan noliydi. Nodira vatanga, xalqqa sadoqat bilan chin yurakdan xizmat qilishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 1326. O‘zbek she’riyati antologiyasi o‘zadabiynashr,Toshkent-1961 yil.

2. “Ma’naviyat yulduzlari” (Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 1999) kitobidan olindi.

3. J.Lapasov Mumtoz adabiy asarlar o‘quv lug‘ati “O‘qituvchi”nashriyoti 1994 yil.

4. Nodira-Komila II-kitobi Toshkent-2004 yil

5. Laziz Qayumov “Qo‘qon fozillari ” Qo‘qon 2006-yil 16 bet

6. Po‘latjon Qayumov “Qo‘qand tarixi va uning adabiyoti” Toshkent 2011-yil 380 bet

7. Uvaysiy Devon O‘zSSR Toshkent – 1963 yil 248 bet

8. Ummat To‘ychiyev “O‘zbek adabiyotida badiiylik” Toshkent – 2011-yil 508 bet

9. Amiriy “Devon” O‘zSSR Toshkent - 1972-yil 360 bet

10. O‘zbek she’riyati atologiyasi O‘zSS Toshkent 1961-yil 440 bet

11. B.A.Abdullayeva O‘zbek adabiyoti tarixi Toshkent – 1964-yil 384 bet

12. M.Qodirova “ Nodira” O‘zSSR Toshkent – 1965-yil 101bet

13. Mahbuba aya Qodirova Nodira-Komila Toshkent - 2004-yil 208 bet